



UDK:612: 796.10

Barno AMIRULLAYEVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti v.b
E-mail: barnoabdullayeva@gmail.com

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent A.Abdumannotov taqrizi asosida

BO'LAJAK O'QITUVCHILAR FAOLIYATIDA PROGNOZLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Аннотация

Ushbu maqolada ta'lim tizimida kechayotgan jarayonlarga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy tendensiyalar axborot texnologiyalarining jadal rivoji hamda bo'lajak mutaxassisga qo'yilayotgan zamonaviy talablar bilan bog'liq holda tahlil qilingan. Maqolada pedagogik faoliyatda prognozlash funksiyasining yetakchi ahamiyati asosan, uning o'qituvchining uzluksiz kasbiy rivoji hamda mas'uliyatga asoslangan mustaqil faoliyatini ta'minlashdagi roli ochib berilgan.

Kalit so'zlar: XXI asr ta'limi, pedagogik prognozlash, bo'lajak o'qituvchi, kasbiy kompetensiya, ta'lim sifati, innovatsion yondashuv.

РАЗВИТИЕ ПРОГНОСТИЧЕСКИХ УМЕНИЙ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация

В данной статье проанализированы основные тенденции, влияющие на процессы, происходящие в системе образования, в связи со стремительным развитием информационных технологий и современными требованиями, предъявляемыми к будущему специалисту. В статье обоснована ведущая роль прогностической функции в педагогической деятельности и раскрыто её значение в обеспечении непрерывного профессионального развития учителя, а также его самостоятельной деятельности, основанной на ответственности.

Ключевые слова: Образование XXI века, педагогическое прогнозирование, будущий учитель, профессиональная компетентность, качество образования, инновационный подход.

DEVELOPING FORECASTING SKILLS IN THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF FUTURE TEACHERS

Annotation

This article analyzes the main trends influencing the processes taking place in the education system in connection with the rapid development of information technologies and the modern requirements imposed on future specialists. The article substantiates the leading importance of the forecasting function in pedagogical activity and reveals its role in ensuring the teacher's continuous professional development as well as independent activity based on responsibility.

Key words: 21st century education, pedagogical forecasting, future teacher, professional competence, quality of education, innovative approach.

Kirish. Hozirgi axborotlashgan jamiyatda ta'limni faqat tashqi ehtiyojlarga xizmat qiluvchi mexanizm sifatida qabul qilish yetarli emas. Ayniqsa tabiiy fanlar o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida bo'lajak mutaxassis faoliyatida prognozlash ko'nikmalarining ahamiyatini ochib berishda ta'lim strategiyasini keng kontekstda ko'rib chiqish zarur. Bunda global miqyosda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, ekologik muammolar, demografik jarayonlarni hisobga olish muhim pedagogik talabga aylanmoqda.

Tadqiqotning dolzarbligi jahon taraqqiyotidagi zamonaviy tendensiyalar hamda O'zbekiston ta'lim siyosatida barcha sohalarda, xususan, o'qituvchilik faoliyatida mutaxassislarning ijodiy va prognozlash faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan yo'nalishlar bilan belgilanadi. Shu bilan birga, pedagogik ta'limda o'qituvchini prognozlashga qodir bo'lishiga asoslangan holda uzluksiz o'zini rivojlantirish texnologiyasi bilan qurollantirish va pedagogik yetuklikka erishishga qo'yilayotgan talablarning ortib borishi bilan izohlanadi.

O'qituvchi faoliyatida prognozlash muammosi hozirgi kunga qadar na umumiy pedagogik, na xususiy didaktik darajada yetarlicha ishlab chiqilgan. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ko'p bosqichli oliy ta'limni joriy etish

hamda O'zbekiston ta'limi Boloniya jarayoniga rasmiy a'zo bo'lmagan sharoitda ham, ushbu tizim tamoyillarini joriy etishga urinishlar va islohotlar doirasida mazkur muammo alohida ahamiyat kasb etib, yangi rivojlanish imkoniyatlarini ochmoqda. Zamonaviy o'qituvchining kasbiy faoliyati o'quvchilarning tayanch va fanlarga oid kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llarini hamda ularga erishish mexanizmlarini oldindan ko'ra bilish zarurati bilan tavsiflanadi [1].

Tadqiqot konsepsiyasi shundan iboratki, hozirgi sharoitda ta'lim sohasida ishlab chiqilayotgan loyihalarda belgilangan vazifalar darajasi bilan ularni amalga oshirishga o'qituvchilarning tayyorgarligi o'rtasidagi tafovutlar kuchaygan bir paytda, pedagogik prognozlash o'qituvchining eng zarur va muhim kasbiy funksiyalaridan biriga aylanmoqda hamda kelajak mutaxassisini tayyorlashdagi uning faoliyati samaradorligini belgilab beradi.

Adabiyotlar tahlili. Tahlil jarayoni pedagogik ta'lim tizimi o'qituvchining uzluksiz o'zini o'qitishi, kasbiy va shaxsiy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilganligini ko'rsatdi. Buyakas ta'kidlashicha, pedagogik ta'lim tizimiga bo'lajak o'qituvchilarning prognozlash faoliyatini joriy etish, kelgusida esa ularning o'quvchilarida prognozlash faoliyatini rivojlantirish faol,

samarali, o'zini boshqara oladigan, tashabbuskor va ijodiy salohiyatga ega, o'z-o'zini rivojlantirish va takomillashtirishga tayyor o'qituvchini shakllantirishga xizmat qiladi [2].

Derkach hamda Matushak tadqiqotlarida prognozlash faoliyati o'qituvchini quyidagi imkoniyatlar bilan ta'minlashi isbotlangan:

kasbiy va shaxsiy o'sish hamda rivojlanish uchun asoslangan maqsadlarni belgilash qobiliyati;

doimiy kasbiy rivojlanish va o'zini takomillashtirishga intilish;

kasbiy va shaxsiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan prognozlash metodologiyasi va texnologiyalarini egallash;

o'zini-o'zi ta'lim olish, kasbiy va shaxsiy rivojlanishni, shuningdek, o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish yo'llarini bilish;

o'z faoliyatini baholash va zarurat tug'ilganda uni tuzatish (korrektirovka qilish) ko'nikmalari;

nihoyat, prognozlash yangi ijtimoiy hodisalarga nisbatan optimistik istiqboliy qarashni shakllantiradi, o'zgarishlardan cho'chimaslikka o'rgatadi hamda ilmiy prognozlash yondashuvi asosida optimal faoliyat usullarini topish va ularni amalga oshirish bo'yicha zarur tajribani hosil qilish imkonini beradi [3].

Mazkur yangi ijtimoiy hodisalarni tahlil qilar ekan, Vulfson XXI asrda Yevropa hududida umumta'lim maktablari rivojlanishini olimlar besh xil variantda tasavvur qilayotganini ta'kidlaydi (1-jadval) [4].

Jadval 1. XXI asrda Yevropa ta'lim tizimida maktablar rivojlanishining muqobil yo'nalishlari

1-variant	2-variant	3-variant	4-variant	5-variant
“O'rgatuvchi va o'z rivojlanishini prognozlaydigan maktab.” Bu maktab faqat ta'lim berish bilan shug'ullanadi. Tarbiya esa oila va cherkovning vakolatiga kiradi.	“Tanlov maktabi” – qat'iy differentsiatsiyaga asoslangan maktab. Bunday maktabda asosiy maqsad sifatli ta'limni ta'minlash va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashdir.	“Ijtimoiy va madaniy tizimdagi maktablar.” Ular ta'lim va tarbiyaning eng yaxshi muvozanatiga erishishni maqsad qiladilar, ammo bu “eng yaxshi” nisbatni belgilash mezonlari olimlar orasida bahs-munozaralarga sabab bo'ladi.	“Texnologik maktab” katta xarajat talab qiladi, chunki u eng zamonaviy texnik o'quv vositalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.	“Differensializatsiya qilingan maktab” har bir bola uchun alohida o'quv dasturini yaratishga mo'ljallangan.

Insonparvarona ta'lim paradigmasi nuqtai nazaridan, bizning fikrimizcha, talabalarning faoliyatiga prognozlashni kiritish faqatgina 5-maktab variantida real bo'lishi mumkin. Bu yerda faqatgina tashqi prognozlash nazarda tutiladi. Prognozlash muammosi Amerika qit'asida ham tadqiq etilgan. Ba'zi olimlar ta'limiy prognozlashning asosiy maqsadi o'quvchilar va talabalarni hayotiy inqirozlar bilan kurasha olishga o'rgatish bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Shu bois ularning tadqiqotlarida ichki prognozlashni o'rgatishga e'tibor qaratilgan. AQShda pedagogik prognozlash o'quvchilar va talabalarni jamiyat hayotidagi o'zgarishlarni oldindan sezish va ularga moslashishga o'rgatishga mo'ljallangan. Ushbu yo'nalish tarafdorlari ta'lim vazifasini o'quvchilarga bilimli va malakali tarzda o'quv yo'nalishini va kelajakdagi kasbini tanlashni o'rgatishda ko'radi.

Tahlil va natijalar. Bizning mamlakatimizda insonparvarona ta'lim paradigmasi doirasida kelajak o'qituvchilarini pedagogik prognozlashga tayyorlashda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv keng qo'llaniladi. Kiriakova, Ryabinina va Belyakov tadqiqotlariga tayangan holda, bu yondashuvning oliy pedagogik ta'lim misolida asosiy jihatlari quyidagicha tahlil qilamiz:

1. Talaba faoliyat subyekti sifatida: Talaba ob'ekt emas, balki faoliyatning subyekti hisoblanadi. Uning shaxsiyati, o'ziga xos tajribasi mavjud. Talaba ta'lim mahsuli emas, balki uning faol ishtirokchisidir. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarlikdagi prognozlash faoliyati talabaning bilim va ko'nikmalar paradigmasida o'quv ob'ekti sifatida emas, bilish subyekti sifatida shakllanishini rag'batlantiradi. Talaba o'z faoliyati maqsadini mustaqil belgilaydi, uni amalga oshirish yo'llarini prognozlaydi va ta'lim hamda kasbiy faoliyatdagi natijalarni qayd etadi.

2. Ta'lim va kasbiy tayyorgarlik jarayoni: Ushbu jarayon individual faoliyatni tashkil qilish orqali belgilangan standartlarni o'zgartirish va ichki o'zlashtirishni nazarda tutadi. Matushak fikricha, prognozlash faoliyatiga qadam qo'yish uchun avvalo fantaziya va tasavvur faollashtirilishi kerak. Shundan so'ng, talaba axborotni mantiqiy jihatdan qayta ishlash, uni tizimlashtirish va asoslangan xulosalar chiqarishga xizmat qiladigan tarzda tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirishi lozim [5].

Bizning amaliy tadqiqotimiz shuni ko'rsatdiki, talabalarning prognozlash yo'naltirilishini to'g'ri amalga oshirish

uchun ular yig'ilgan axborotni tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur. Ijtimoiy fanlardagi ko'plab tadqiqot metodlari prognoz ma'lumotlarini mantiqiy tashkil etishga asoslangan. Talabaning o'z faoliyatini uzoq muddatga oldindan ko'ra bilishi, shuningdek, keyinchalik ishlov berish va foydalanish uchun ma'lumotlarni to'g'ri yig'ish va qayd etish qobiliyati pedagogik prognozning asosini tashkil qiladi.

Prognozlashning bir jihati kasbiy jihat bilan bog'liq bo'lgani uchun, axborotni mantiqiy tashkil etish qobiliyati bo'lajak o'qituvchi uchun birinchi darajali ahamiyatga ega. Bu degani, har qanday dars rejasi yoki talabaning eslatmalari axborotni mantiqiy tashkil etish shakli sifatida qaraladi.

Mitina fikricha, talaba prognozlashning tarbiyaviy ahamiyatini real pedagogik va ijtimoiy vaziyatlarga asoslangan prognozlash vazifalarini bajarish jarayonida anglab yetishi va o'zlashtirishi lozim.

Oliy pedagogik universitet talabalariga prognozlash faoliyatini o'rgatishda, ularning nafaqat prognozlash ob'ekti, balki subyekti sifatida ham faoliyat yuritishini hisobga olish kerak. Bir tomondan, talabalar o'z o'quv faoliyatini prognozlashni o'rganadi, boshqa tomondan esa amaliyot jarayonida ular maktab o'quvchilarining prognoz faoliyatini boshqaradi.

Rindak va Mixaleva, Slabaya va Belyalova tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, samarali prognozlash uchun bo'lajak o'qituvchiga pedagogik prognozlashning eng muhim tamoyillaridan biri – prognozlashni boshqarish tamoyilini o'rgatish zarur. Shu tamoyilni prognozlashni o'rgatish tamoyili deb ham atash mumkin. U prognozlash qobiliyatini, tasavvur va fantaziyaning qayta yaratish, kompetent tanlov, kombinatsiya va prognozlashni o'z ichiga oladi.

Bunday ta'lim jarayoni o'qituvchi belgilagan maqsadlarni tushunish bilan boshlanadi. Talabalar o'z faoliyati natijalarini qayd eta olishi kerak. Keyingi bosqich – o'quv jarayonida olingan ma'lumotlarni mantiqiy tashkil etish qobiliyatini shakllantirish. Shuningdek, talaba materialni sxemalash, guruhlash, asosiy mazmuniy nuqtalarni ajratish, tuzilmasini yaratish va modellashtirish elementlarini o'rganishi zarur.

Matushak fikriga ko'ra, prognozlash kompetensiyasi doirasidagi bilim, ko'nikma va sifatlarning keyingi guruhi rejalashtirilgan prognoz bazasini shakllantirish kompetensiyasi

bilan bog'liq bo'lib, ushbu kompetensiyaning rivojlanishi talabalarda o'z o'quv faoliyatini ongli ravishda tahlil qilish va uni "ichki ko'rish" asosida boshqarish qobiliyatini shakllantiradi [6].

Prognozlashni o'rgatishda muhim elementlardan biri – fantaziyani rivojlantirish yoki uni faollashtirishdir. Fantaziyani faollashtirish uchun o'qituvchilar ijodiy vazifalardan foydalanadilar.

Biz ajratib ko'rsatgan asosiy prognoz kompetensiyalaridan biri – operatsion va prognoz kompetensiyasi, u talabning uzoq muddatli faoliyatini oldindan ko'ra olishini ta'minlaydigan faoliyatni nazarda tutadi. Bu kompetensiyaga prognoz asosida axborotni tashkil etish, prognoz ishlab chiqish va uni tahlil qilish bilim va ko'nikmalari kiradi. Shu kompetensiyani shakllantirish o'qituvchiga talabalarining prognozlash faoliyatini boshqarish asosini yaratadi.

Demonstratsiya metodi professional-pedagogik ta'limda o'qituvchi prognozlash texnologiyasini namoyish etishini nazarda tutadi. Masalan, loyiha darajasidagi prognozlashda avvalo butun loyiha talabalar oldida namoyish qilinishi kerak. O'qituvchi materialni qanday yig'ish, mavzuni tanlash, gipoteza qo'yish, ishini tekshirish tartibi va yakuniy natijani (loyihani) qanday ko'rsatishni o'rgatadi. Slabaya va Belyalova tadqiqotida birinchi loyihalar o'qituvchi nazorati ostida va uning tayyorlagan loyiha modelidan foydalanib amalga oshirilishi kerakligi ta'kidlangan. Ushbu bosqichda eslatmalardan foydalanish mumkin va hatto ma'quldir.

Tushuntirish metodi mazmunan bir-birini to'ldiruvchi quyidagi texnikalarni qamrab oladi: o'quv materialini izchil tushuntirish, asosiy qoidalarni tizimli taqdim etish hamda prognozlash faoliyatini o'zlashtirishga yo'naltirilgan prognoz vazifasi modeliga murojaat qilish.

Topshiriq metodi talabalarda prognozlash faoliyatining alohida komponentlarini rivojlantirish va mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu metod doirasida topshiriqlar prognozlashning darajasi hamda harakatlar murakkabligiga qarab naiv-intuitsion, tajribaviy-mantiqiy va ilmiy-gipotetik prognozlash mashqlariga, shuningdek maqsad qo'yish, rejalashtirish, dasturlash va loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan mashqlarga bo'linadi.

Nazariy va metodologik tahlildan so'ng, zamonaviy o'qituvchining kundalik pedagogik faoliyatida muhim o'rin tutuvchi prognozlash jarayonlariga e'tibor qaratamiz. Mazkur jarayonlarning aksariyati ilmiy-metodik asosga yetarlicha ega emasligi bois, talabalarni to'g'ri idrok etish va ular bilan samarali muloqot muhitini shakllantirishda muammolar yuzaga kelmoqda.

Biz o'qituvchilarni professional rivojlanish tizimidagi faoliyatini kuzatish, so'rov va intervyular orqali aniqladikki, ularning amaliy faoliyati prognozlashga asoslangan, ilmiy qonunlarga emas, balki faoliyat jarayonida yuzaga kelgan faktlarga tayanadi.

Pedagogik hodisalar takrorlanishi voqealar orasidagi bog'lanishlarni shakllantirishga yordam beradi va ayrim empirik qonunlarni aniqlash imkonini beradi. Empirik prognozlashda o'qituvchining shaxsiy sifatlari – amaliy tafakkur darajasi, kuzatuv ko'nikmalari va prognozlashga munosabati – muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar prognozlashni o'z faoliyatining integrativ sifati,

asosan yaqin natijaga yo'naltirilgan doimiy orientatsiya sifatida ko'radilar.

Shu asosda, biz empirik prognozlashni quyidagicha ta'riflaymiz: o'qituvchi pedagogik haqiqatning individual xususiyatlari haqida oldindan ma'lumot olish jarayoni, u ilmiy asosga ega bo'lmagan va mavjud axborot hamda ob'ektning o'tgan va hozirgi holatidan ekstrapolyatsiya qilinadigan jarayonga asoslanadi. Natija – aniq pedagogik fakt yoki hodisaga oid empirik prognoz, ob'ekt – o'quv va tarbiyaviy jarayonlarning konkret hodisalari, subyekti esa qisqa muddatli operatsion qarorlar qabul qilish bilan bog'liq o'qituvchining kasbiy faoliyatidir.

Xulosa. Ko'rib turganimizdek, o'qituvchilarning prognozlash funksiyasi hozirda situatsion-empirik darajada bo'lib, u ularning faoliyatini ilmiy va nazariy asosda yaxshilashda strategik yo'naltiruvchi nuqta sifatida ishlamaydi. Bu esa kelajak o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida ushbu funksiyani rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan modellar va texnologiyalarni qo'llash zarur ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirganda quyidagi xulosalarga kelamiz:

- O'zbekistonda pedagogik prognozlashni rivojlantirishning hozirgi bosqichida ustuvor vazifa – bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik prognozlash orqali kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun ilmiy asoslangan va tuzilmaviy model yaratishdir. Bu modelda tashqi va ichki prognozlash, shuningdek, hozirgi va istiqbolli prognozlash amalga oshiriladi.

- Hozirgi amaliyotda o'qituvchilar prognozlash funksiyasini ta'lim jarayonida intuitiv va empirik yondashuvlar asosida amalga oshirmoqdalar, bu esa uni to'liq va samarali bajarishga imkon bermaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kelajak o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik prognozlashni o'rgatishning nazariy-metodologik va texnologik asoslarini belgilaydigan nazariya qo'llanishi zarur.

- Bo'lajak o'qituvchilarning prognozlash kompetensiyasini shakllantirish talabning shaxsiy xususiyatlari, individual tajribalari va o'ziga xos qiziqishlarini, shuningdek talaba va o'qituvchi hamkorligini hisobga olgan holda, shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar orqali amalga oshirilishi lozim.

Ushbu tadqiqot doirasida muammoni to'liq va keng qamrovda hal qilish imkoni yo'q. Biroq quyidagilar aniq: kelajak o'qituvchilarini tayyorlash metodologiyasi va usullari zamon talablariga mos, talabalarining mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga, shaxsiy javobgarlikni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Asosiy maqsad – bo'lajak o'qituvchining prognozlash qobiliyatini rivojlantirish, uning mustaqil qaror qabul qilish va ijodiy faoliyat yuritish qobiliyatini shakllantirish, shuningdek faoliyatini o'z shaxsiy qadriyatlarini va pedagogik maqsadlari asosida samarali tashkil etishdir. Shu yo'l bilan ta'lim muassasalari postindustrial jamiyatga mos, mutaxassis tayyorlash uchun zarur sharoitlarni yaratadigan mas'uliyatli va sifatli ta'lim muhitiga aylanadi. Bunda dominant metafora XX asr mexanik dunyoqarashi emas, balki o'zini o'zi rivojlantiruvchi organik tizim bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Борисенков В.П. Ключ к повышению качества образования. В: 3-я Международная конференция «Педагогика деятельности и подготовка учителя» (DPPO-2015). С. 11–24. Воронеж: Научная книга, 2016.
2. Буюкас Т.М. Связь профессиональной и личной самореализации в процессе профессионального образования. В: С.И. Кудинов, С.С. Кудинов, О.Б. Михайлова (ред.), Российская научно-практическая конференция «Самореализация личности в современном мире». С. 19–26. Москва: Российский университет дружбы народов, 2016.
3. Деркач А.А. Психолого-акмеологические основы и средства оптимизации личностного и профессионального развития конкурентоспособного специалиста. *Acmeology*, S1, ст.22–32, 2013.
4. Матушак А.Ф. Педагогическое прогнозирование в подготовке учителей школ и преподавателей университетов. Челябинск: Издательство Челябинского государственного педагогического университета, 2018.
5. Volfson B.L. Modernization of the content of general education: comparative context. *Domestic and Foreign Pedagogy*, 3 (12), 5–22, 2015.